



Legal bases of interaction between state bodies and non-governmental non-profit organizations in the Republic of Uzbekistan

Dilshod RAJABOV¹

Tashkent State University of Law

ARTICLE INFO

Article history:

Received March 2023
Received in revised form
15 April 2023
Accepted 25 April 2023
Available online
15 May 2023

Keywords:

государственные органы,
неправительственных
некоммерческих
организаций,
международные
документы и правила
международного договора,
систематизирование.

ABSTRACT

In the Republic of Uzbekistan, the constitutional and legal bases of interaction between state bodies and non-governmental non-profit organizations are considered in the article. The system of constitutional and legal bases of the interaction of state bodies with non-governmental non-profit organizations in the Republic of Uzbekistan is analyzed on the basis of the current Constitution and Laws of the Republic of Uzbekistan, by-laws, and on the basis of scientific views of scientists in this field as well. In our country, the need for systematization of regulatory legal acts regulating the interaction of state bodies with non-governmental non-profit organizations has been currently determined. Proposals have been put forward to systematize laws and by-laws regulating the interaction of state bodies with non-governmental non-profit organizations.

2181-1415/© 2023 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss3/S-pp338-346>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

O'zbekiston Respublikasida davlat organlarining nodavlat notijorat tashkilotlari bilan o'zaro munosabatlarning huquqiy asoslari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

davlat organlari,
nodavlat notijorat
tashkilotlari,
milliy qonunchilik
tizimi,

O'zbekiston Respublikasida davlat organlarining nodavlat notijorat tashkilotlari bilan o'zaro munosabatlarning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari ko'rib chiqilgan. O'zbekiston Respublikasida davlat organlarining nodavlat notijorat tashkilotlari bilan o'zaro munosabatlarning konstitutsiyaviy-

¹ Independent Applicant, Tashkent State University of Law. E-mail: dilshodbek.rajabov@inbox.ru.

xalqaro hujjatlar va xalqaro
shartnoma qoidalari,
tizimlashtirish

huquqiy asoslari tizimi amaldagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Qonunlari, qonunosti hujjatlari va bu borada ilmiy qarashlarini bayon etgan olimlarning fikrlari asosida tahlil qilingan. Hozirgi kunda mamlakatimizda davlat organlarining nodavlat notijorat tashkilotlari bilan o'zaro munosabatlarini tartibga soluvchi qonun va qonunosti hujjatlarini tizimlashtirish zarurati mavjudligi aniqlandi. Davlat organlarining nodavlat notijorat tashkilotlari bilan o'zaro munosabatlarini tartibga soluvchi qonun va qonunosti hujjatlarini tizimlashtirish bo'yicha takliflar ilgari surildi.

Правовые основы взаимодействия государственных органов с негосударственными некоммерческими организациями в Республике Узбекистан

Ключевые слова:

государственные органы, неправительственных некоммерческих организаций, международные документы и правила международного договора, систематизирование

АННОТАЦИЯ

В Республике Узбекистан рассмотрены конституционно-правовые основы взаимодействия государственных органов с негосударственными некоммерческими организациями. Проанализирована система конституционно-правовых основ взаимодействия государственных органов с негосударственными некоммерческими организациями в Республике Узбекистан на основе действующих Конституции и Законов Республики Узбекистан, подзаконных актов, а также на основе научных взглядов ученых в данной сфере. В настоящее время в нашей стране определена необходимость систематизации нормативно-правовых актов, регулирующих взаимодействие государственных органов с негосударственными некоммерческими организациями. Выдвинуты предложения по систематизации законов и подзаконных актов, регулирующих взаимодействие государственных органов с негосударственными некоммерческими организациями.

Hozirgi kunda milliy qonunchiligimizda nodavlat notijorat tashkilotlarining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini belgilab beruvchi qonun va qonunosti hujjatlarining samarali tizimi yaratildi. Mazkur yo'nalishda mustaqilligimizning dastlabki yillarida hattokki, mustaqilligimizga erishilmagan davridayoq bu sohaning qonunchilik bazasi yaratilishi ishlari boshlab yuborilgandi (1991-yil 15-fevraldan qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Jamoat birlashmasi to'g'risida"gi Qonuni).

Darhaqiqat, bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ro'yxatga olinib, "Lex.uz" nomli elektron qonunchilik milliy bazasida joylashtirilgan nodavlat notijorat tashkilotlari sohasidagi qonunchilik hujjatlarining soni 500 dan ortiqdir.

O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi (yangi tahriri) Qonunining 5-moddasiga ko'ra normativ-huquqiy hujjatlarning turlari quyidagicha tasniflanadi:

- a) O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi;
- b) O‘zbekiston Respublikasining qonunlari;
- c) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari;
- d) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari;
- e) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari;
- f) vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari;
- g) mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari.

Tadqiqotchi D.R.Xolmanova tomonidan mamlakatimizdagi nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini tartibga soluvchi nomativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilib, ushbu qonunchilik tizimini quyidagicha tasniflashni ilgari suradi:

- O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida belgilangan normalar;
- O‘zbekiston Respublikasining kodekslarida belgilangan normalar;
- O‘zbekiston Respublikasining qonunlari:
 - a) universal tipdagi qonunlar;
 - b) maxsus tipdagi qonunlar;
- qonunosti hujjatlari;
- xalqaro hujjatlar [1, 17-18-betlar].

Fikrimizcha, mazkur tasniflashda xalqaro hujjatlarning maqomi ierarxik nuqtai nazardan o‘z o‘rnini topmagan. Zeroki, O‘zbekiston Respublikasining “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonunining 3-moddasida ushbu sohadagi xalqaro hujjatlar va milliy qonunchilik hujjatlarining o‘zaro nisbati quyidagicha belgilangan: “Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.”

Demak, O‘zbekiston Respublikasida nodavlat notijorat tashkilotlarning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini tashkil qiluvchi qonunchilik tizimini yoki normativ-huquqiy hujjatlar tizimini quyidagi ikki guruhga ajratish mumkin:

Milliy qonunchilik tizimi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan normalar;
2. O‘zbekiston Respublikasining qonunlarida belgilangan normalar:
 - a) O‘zbekiston Respublikasi kodekslarida belgilangan normalar;
 - b) umumiy qonunlar;
 - c) maxsus qonunlar.
3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari;
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari;
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari;
6. vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari;
7. mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari.

Xalqaro hujjatlar va xalqaro shartnoma qoidalari.

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan normalar.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining avvalgi tahririda jamoat birlashmalarining konstitutsiyaviy asoslariga e‘tibor qaratilgan bo‘lsa, hozirgi yangi tahrirda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida 69-modda fuqarolik jamiyati institutlari, shu jumladan, jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari

fuqarolik jamiyatining asosini tashkil etishi bayon etilgan. Mazkur moddaning yangi tahrirda bayon etilishi nodavlat notijorat tashkilotlarining konstitutsiyaviy institutsiyalashuvini aniq belgilab qo'yilib, ularga fuqarolik jamiyatining muhim institutlari sifatida konstitutsiyaviy maqom berildi. Bundan tashqari, yangi tahrirdagi Konstitutsiyasimizning 30 [2, 3-bet], 39, 69, 70, 71, 72, 73, 74, 75-moddalarida davlat organlarining nodavlat notijorat tashkilotlari bilan o'zaro munosabatlarining umumiy va rahbariy qoidalari belgilab quyilgan.

Xorijiy mamalakatlar konstitutsiyalarini qiyosiy-huquqiy tahlil qilganimizda bunday holatga duch kelmaymiz. Ya'ni ushbu munosabatlarni tartibga soluvchi konstitutsiyaviy-huquqiy normalarni faqatgina bir yoki ikki moddada mustahkamlab qo'yilganining guvohi bo'lamiz.

Xususan, Chexiya Respublikasi Konstitutsiyasining 20-moddasiga ko'ra, erkin uyushish huquqi kafolatlanib, har kim boshqa shaxslar bilan birgalikda uyushmalar, jamiyatlar va boshqa birlashmalarga birlashish huquqiga egaligi belgilab quyilgan [3, 60-bet].

Germaniya Federativ Respublikasi Konstitutsiyasining 9-moddasiga binoan, barcha nemislar uyushma va jamiyatlar tuzish huquqiga ega bo'lib, maqsadi va faoliyati jinoyat qonunlariga qarshi chiqadigan yoxud konstitutsiyaviy tuzum yoki xalqning hamjihatligiga qarshi yo'naltirilgan birlashmalar taqiqlanishi mustahkamlangan [4, st.582].

Yaponiya Konstitutsiyasining 21-moddasiga ko'ra, yig'ilish va birlashish erkinligi shuningdek, so'z, nashr va barcha shakldagi fikr bildirish erkinligi kafolatlanadi deb belgilangan [5, st. 361].

Shuningdek, Konstitutsiyada belgilangan nodavlat notijorat tashkilotlar to'g'risidagi normalar ularning huquqiy maqomi va faoliyatining konstitutsiyaviy prinsiplarini belgilab bergan asos bo'ladi. Ushbu prinsiplarning quyidagicha tavsiflash mumkin:

- nodavlat notijorat tashkilotlari fuqarolik jamiyatining asoslaridan biri hisoblanishi;

- nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyati qonunga muvofiq amalga oshirilishi;

O'zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan jamoat birlashmalarigina sifatida e'tirof etilishi;

- Konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishni maqsad qilib qo'yuvchi, O'zbekistonning davlat suverenitetiga, hududiy yaxlitligiga va xavfsizligiga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy hamda diniy adovatni targ'ib qiluvchi, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklariga, aholining sog'lig'iga, ijtimoiy axloqqa tajovuz qiluvchi nodavlat notijorat tashkilotlarning tuzilishi va faoliyati taqiqlanishi;

- davlat nodavlat notijorat tashkilotlarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta'minlashi va ularga ijtimoiy hayotda ishtirok etish uchun teng huquqiy imkoniyatlar yaratib berishi;

- davlat organlari va mansabdor shaxslarning nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatiga aralashishiga yo'l qo'yilmasligi;

- nodavlat notijorat tashkilotlarining davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatiga aralashishiga yo'l qo'yilmasligi;

- nodavlat notijorat tashkilotlarini tarqatib yuborish, ular faoliyatini ta'qiqlab yoki cheklab qo'yish faqat sud qarori asosidagina amalga oshirilishi.

2. O'zbekiston Respublikasining qonunlarida belgilangan normalar:

a) O'zbekiston Respublikasi kodekslarida belgilangan normalar.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida yuridik shaxslarni ikki guruhga ajratilib, ularning bir guruhini notijorat tashkilotlar tashkil etadi. Bunda asosan, ushbu guruhga fuqarolik-huquqiy munosabat sub'ekti sifatida baho beriladi. Ushbu kodeksning 74-75-moddalarida bu haqida bayon etilgan.

O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida ham nodavlat notijorat tashkilotiga ta'rif berilib, ular soliq munosabatlarning sub'ektlaridan biri sifatida baho beriladi. Mazkur kodeksning 58-moddasida bu haqida keltirilgan.

Bundan tashqari, nodavlat notijorat tashkilotlarini himoya qilishga qaratilgan normalar O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 2021-, 239-, 2391-, 240-moddalarida ma'muriy huquqbuzarliklarga hamda O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksining 79-, 144-, 175-, 213-, 214- moddalarida jinoiy javobgarlik asoslari belgilangan.

b) umumiy qonunlar. Nodavlat notijorat tashkilotlaring barcha shakllari uchun umumiy qoidalarni belgilovchi bir qancha qonunlar mavjud. O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasining "Homiyluk to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasining "Ishtimoiy sheriklik to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasining "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonuni shular jumlasidandir.

O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonuni 1999-yil 14-aprelda qabul qilingan bo'lib, ushbu Qonun nodavlat notijorat tashkilotining huquqiy maqomi, huquq va majburiyatlari, uni tuzish tartibi, davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi, faoliyatining iqtisodiy asoslari, faoliyatini to'xtatish va tugatish, javobgarlik kabi masalalarni tartibga soladi.

O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni 2007-yil 3-yanvarda qabul qilingan bo'lib, ushbu Qonun nodavlat notijorat tashkilot faoliyati kafolatlaring umumiy masalalari, ular faoliyatining asosiy kafolatlari shakllari, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ular faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash shakllari va javobgarlik borasidagi huquqiy munosabatlarni tartibga soladi.

O'zbekiston Respublikasining "Homiyluk to'g'risida"gi Qonuni 2007-yil 2-mayda qabul qilingan, O'zbekistonda homiyluk faoliyati va homiylarning huquqiy maqomi, homiyluk tashkilotlarini tashkil etish, faoliyat yuritishi, to'xtatish va tugatishning huquqiy asoslari, homiylukning amalga oshirilishida davlatning ishtirok etishi, xalqaro homiyluk faoliyati kabi masalalarni huquqiy tartibga soladi.

O'zbekiston Respublikasining O'zbekistonda "Ishtimoiy sheriklik to'g'risida"gi Qonuni 2014-yil 25-sentyabrda qabul qilingan, ijtimoiy sheriklik sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat bo'lib, bugungi kundagi sotsial-iqtisodiy rivojlantirishga doir dasturlarni amalga oshirishda, gumanitar muammolarni hal qilishda, mamlakatimiz aholisi turli qatlamlarining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda nodavlat notijorat tashkilotlari va boshqa fuqarolik jamiyati institutlarining davlat organlari bilan o'zaro munosabatlari chegaralarini aniq

belgilash va tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasining "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonuni 2018-yil 12-aprel davlat organlari va muassasalari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini tashkil etish hamda amalga oshirish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

v) *maxsus qonunlar*. Nodavlat notijorat tashkilotlarining u yoki bu tashkiliy-huquqiy shakllarini tartibga soluvchi bir guruh qonunlar mavjud. Ularni qabul qilingan sanasi (xronologiya) bo'yicha quyidagicha bayon etish mumkin. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida"gi Qonuni (1991-yil 15-fevral), O'zbekiston Respublikasining "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi Qonuni (1996-yil 26-dekabr), O'zbekiston Respublikasining "Jamoat fondlari to'g'risida"gi Qonuni (2003-yil 29-avgust), O'zbekiston Respublikasining "Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida"gi Qonuni (2004-yil 30-aprel), O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahriri, 2018-yil 9-iyul), O'zbekiston Respublikasining "Kasaba uyushmalari to'g'risida"gi qonuni (yangi tahriri 2019 yil 6 dekabr), O'zbekiston Respublikasining "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahriri, 2021-yil 5-iyul).

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari. Mamlakatimizda qonun chiqaruvchi hokimiyat vazifasini bajaradigan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi nodavlat notijorat tashkilotlari sohasini tartibga soluvchi qonunlar qabul qilish bilan cheklanib qolmasdan, balki bu sohani davlat tomonidan qo'llab quvvatlashga qaratilgan bir qancha qarorlar va qo'shma qarorlar qabul qilgan. Chunonchi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi to'g'risidagi nizomga qo'shimcha kiritish haqida" Qo'shma qarori (2008-yil 30-sentyabr); O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining qo'shma Qarorlarini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori (2008-yil 10-iyul); O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondining vazifalarini amalga oshirish uchun zarur normativ-huquqiy hujjatlarni hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi mablag'larini boshqarish bo'yicha parlament komissiyasining tarkibini tasdiqlash to'g'risida"gi Qo'shma qarori (2008-yil 10-iyul); O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining "Nodavlat notijorat tashkilotlarini, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qo'shma qarori (2008-yil 3-iyul) va boshq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari. Prezident tomonidan ham nodavlat notijorat tashkilotlarining fuqarolar siyosiy faolligini, huquqiy ongi va madaniyatini oshirish, hamda milliy va demokratik qadriyatlarni

mustahkamlash borasida olib borayotgan faoliyatini kengaytirish va zarur shart-sharoitlar yaratib berish maqsadida bir qator qaror va farmonlari qabul qilinmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston musulmonlari idorasi huzurida muqaddas qadamjolarini saqlash va obod etish xayriya jamg'armasini tashkil qilish to'g'risida"gi Qarori (2008-yil 07-iyul); O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2008-yilda Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi byudjetini va bolalar sport ob'yektlari qurilishining aniq manzilli Dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori (2007-yil 12-dekabr); O'zbekiston Respublikasi Prezidentining " "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatini qo'llab-quvvatlash va uning faoliyat samaradorligini yanada oshirish to'g'risida"gi Qarori (2006-yil 10-oktabr); O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston mustaqil bosma ommaviy axborot vositalari va axborot agentliklarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni (2005-yil 16-noyabr); O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Savdo-sanoat palatasini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni (2004-yil 07-iyun); O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasi faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni (2004-yil 25-may); O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Fuqarolik jamiyatini o'rganish institutini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi Farmoyishi (2003-yil 27-iyun) va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi hukumat sifatida qabul qilinayotgan qonunlar, Oliy Majlis qarorlari, Prezident qaror va farmonlarini ijro etadi. Shuningdek, hukumat nodavlat notijorat tashkilotlar sohasidagi qonun hujjatlari ijrosiga ma'sul bo'lib, bu borada davlat siyosatini amalga oshirishda bir qancha qarorlar qabul qilmoqda. Chunonchi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 2007-yil 28-apreldagi 86-son qarorini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida"gi Qarori (2008-yil 12-avgust); O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Siyosiy partiyalarning ustavda nazarda tutilgan faoliyatini davlat tomonidan moliyalashtirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi Qarori (2005 yil 16 mart); O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasining homiylik kengashi tarkibidagi o'zgarishlar to'g'risida"gi Qarori (2004-yil 27-avgust); O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Orolbo'yi genofon-dini muhofaza qilish xayriya jamg'armasini tashkil etish to'g'risida"gi Qarori (2004-yil 03-aprel) va boshqalar.

Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari; mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari. Ushbu davlat hokimiyati organlari o'z vakolatlari doirasida nodavlat notijorat tashkilotlari uchun majburiy bo'lgan muayyan normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilishlari mumkin. Chunonchi, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirining "Qarzdor jismoniy shaxsga ish haqi yoki unga tenglashtirilgan boshqa to'lovlarni to'layotgan tashkilotlar yoki boshqa shaxslar tomonidan ijro hujjatlarini ijro etish qoidalarini tasdiqlash haqida"gi buyrug'i (2009-yil 08-iyul) va boshqalar.

Xalqaro hujjatlar va xalqaro shartnoma qoidalari

Nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqiy asoslarini belgilashda *halqaro hujjatlar* ham alohida o‘rin tutadi. Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktga Fakultativ protokol, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt, Uyushish erkinligi va kasaba uyushmalariga uyushish huquqini himoya qilish to‘g‘risidagi Konvensiyasi, Kasaba uyushmalariga uyushish va jamoa muzokalarini olib borish huquqi prinsiplarini qo‘llash to‘g‘risidagi Konvensiyasi, Inson huquqlari va asosiy erkinliklari to‘g‘risidagi Konvensiyasi (Inson huquqlari bo‘yicha Yevropa Konvensiyasi), Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligining inson huquqlari va asosiy erkinliklari to‘g‘risidagi Konvensiyasi, Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi, Yevropada nohukumat tashkilotlari maqomining asosiy prinsiplari va tushuntirish xati [6, 10-169-betlar] va boshq.

Shunday qilib, davlat organlarining nodavlat notijorat tashkilotlari bilan o‘zaro munosabatlari bu huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurishga xizmat qiladigan yoki yo‘naltirilgan, davlat organlarining nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini huquqiy tartibga solishga qaratilgan, davlat organlari tomonidan nodavlat notijorat tashkilotlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash amalga oshiriladigan, nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish va davlat organlari bilan nodavlat notijorat tashkilotlari hamda tijorat tashkilotlarining ijtimoiy foydali maqsadlarni amalga oshirish borasidagi ijtimoiy sheriklikka asoslanadigan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari, hamda qonun osti hujjatlari bilan tartibga solinadigan ikki va ko‘p tomonlanma munosabatlar tizimidir.

O‘zbekiston Respublikasida davlat organlarining nodavlat notijorat tashkilotlari bilan o‘zaro munosabatlarining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini quyidagi ikki guruhga ajratish mumkin:

a) Milliy qonunchilik tizimi:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida belgilangan normalar;
2. O‘zbekiston Respublikasining qonunlarida belgilangan normalar;
3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari;
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari;
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari;
6. vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarning buyruqlar hamda qarolari;
7. mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari.

b) Xalqaro hujjatlar va xalqaro shartnoma qoidalari.

Bundan tashqari, nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqiy maqomini belgilovchi, ularning faoliyatini hamda davlat organlari bilan o‘zaro munosabatlarini tartibga soluvchi qonun va qonun osti hujjatlarining ko‘pligi sababli ularni tizimlashtirish zarurati mavjud. Shunga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasining Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risidagi kodeksini ishlab chiqish va qabul qilish taklif etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. D.R.Xolmanova O‘zbekiston Respublikasida nodavlat notijorat tashkilotlarining jamoat birlashmalari tizimidagi o‘rni.: Yuridik fanlar nomzodi ... dissertatsiya. – Toshkent, 2012.

2. Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar to'plami. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2008.

3. Chexiya Respublikasi Konstitutsiyasi / Ma'sul muharrir A.X.Saidov. – Toshkent: Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy Markazi, 2012.

4. Конституции государств Европы: В 3 т. Т.1 / Под общей редакцией и со вступительной статей директора Института законодательства и сравнительного правоведения при Правительстве Российской Федерации Л.А.Окунцова. – Москва: Издательство Норма, 2001. – С.582.

5. Конституции мира: Сборник конституций государств мира Т.6 / Сосг. и авторы вступ. статей У.Таджиханов, А.Х.Саидов – Ташкент: Академия МВД Республики Узбекистан, 1998. – С.361.

6. Notijorat huquq bo'yicha xrestomatiya / Tuzuvchilar: As'yanov Sh., Abdulin M. – Toshkent, 2009.